



“TIL VA IMLO MUAMMOLARI”

**mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**





“TIL VA IMLO MUAMMOLARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari

Toshkent – 2023

quritma”, mazkur maqolning ma’nosiga e’tibor qarataylik. Qadimda Ayozi ismli oddiygina bir cho’pon bo’lgan ekan. U donoligi va zukkoligi tufayli xon vaziri bo’ladi. Ayozi cho’ponlikda kechirgan mushkul damlarini unutmaslik uchun o’z chorig’ini doimo xonasining eshigi tepasiga osib qo’ygan ekan. Har gal chorig’iga ko’zi tushganida o’ziga-o’zi: “Ayozi, ko’rgan kuningni unutma, ko’n chorig’ing quritma”, derkan. Ushbu maqol biror-bir yuqori mansabga erishgach yoki katta boylikka ega bo’lgach, o’zining o’tmishini unutib, o’zidan past mansabda bo’lganlarni mensimay qo’ygan insonlar uchun aytilgan. Bu maqolda kibrli bo’lmaslik va hozir qay darajada bo’lishidan qat’i nazar inson hech qachon o’z o’tmishini unutmasligi kerakligi g’oyasi ilgari surilgan. Zero, xalqimizda shunday maqol bor: “Kamtarlik ko’kka ko’tarar, manmanlik yerga kiritar”. Darhaqiqat, kibrli kishilar o’zlarini barchadan doim ustun qo’yadilar va bu eng yomon illatdir. Har bir maqol negizida ana shunday chuqur ma’no yotadi. O’zbek xalq maqollari millatimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini aks ettiruvchi ko’zgudir. Xalq maqollari garchi qisqa bo’lsa-da, unda pur ma’no, mazmun bo’ladi. Maqollar qaysi tilda va qanday mavzuda bo’lishidan qat’i nazar, insonlarni ezgulikka undaydi.

Xulosa o’rinda shuni ta’kidlash mumkinki, maqollar inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollarda o’sha xalqning an’analari, urf-odatlari va o’z qarashlari namoyon bo’ladi. Xalqimiz tomonidan qo’llangan har bir maqol zamirida ibratli ma’no aks etadi. Maqollar insoniyatni to’g’ri yo’lga boshlaydi. Maqollarni kuzatar ekanmiz, ijtimoiy sharoit taqozosi bilan har bir davrdagi siyosiy, maishiy, diniy o’zgarishlar maqollar tarkibidan turli xildagi antroponimlarning o’rin olishiga zamin yaratgan. Bu kabi holatlarni tadqiq qilish kelgusidagi vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O’zbek xalq maqollari. –T.: Sharq, 2005. 257 bet.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. –T.: O’zbek milliy ensiklopediyasi, 2001. 448 bet.

Paremalarda “vatan” tushunchasini ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili

Sharipova Ozoda,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
Ozodaxon925@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq donoligi mahsuli bo’lgan paremalarda aks etgan “vatan” semasiga ega leksik birliklar diaxronik va sinxronik aspektida o’rganilgan. O’zbek xalqining lisoniy manzarasida bu so’z qanday mazmun-mohiyat kasb etishi

boshqa tillar bilan qiyoslangan holda tadqiq qilinib, ulardagi umumiy va faqat o'zbek xalqi uchungina xos bo'lgan jihatlar ochib berilgan. Bu mavzudagi bir qator paremlar tadqiqot obyekti sifatida olinib, "vatan" tushunchasini ifodalash uchun qo'llangan leksemalar semantik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, parema, vatan, yurt, el, diaxronik tahlil, sinxronik tahlil.

Vatan deganda ko'pgina insonlar tasavvurida, dastlab, o'z tug'ilgan yeri, kindik qoni to'kilgan tuproq, bag'rida kamolga yetgan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etgan maskani, o'sib-ulg'aygan yurti gavdalanadi. Biroq aslida bu tushuncha bundanda kengroq, o'zgacha mazmun-mohiyat ifodalaydi. "Vatan" konsepti ko'p qirrali bo'lib, unda xalqning o'tmishi, buguni, kelajagi mujassamdir. Inson ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayib boraveradi.

Paremalarda vatan va u bilan bir paradigmatic qatorda turuvchi leksemalar takror-takror qo'llanadi. Garchi bu so'z kundalik turmushda faol iste'molda bo'lsa-da, barcha ham uning asl mazmun-mohiyatini to'laligicha tushunavermaydi. Vatan semasiga ega leksik birliklarning ma'nosini yaxshi anglash nafaqat tadqiqotimiz obyekti bo'lgan paremalarning mohiyatini mufassal tushunishga, balki ularning yaratuvchisi bo'lgan xalqning asriy madaniy qarashlarini mukammalroq ochib berishga xizmat qiladi. Zeroki, paremlar xalq madaniy hayotini, undagi yutuq va kamchiliklarni, shuningdek, insoniyat umri davomida mavhum saqlaydigan sir-sinoatlardan eng muhimi, ya'ni ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan abstrakt tushunchalarni ochib berishda ham muhim ahamiyatga ega. Uni ochish yoki javobini topish orqali millatning asrlar davomida bajargan amallari hamda erishgan yutuqlari va hatto boshqa xalqlardan ajralib turuvchi o'zigagina xos jihatlarini-da bilib olish mumkin. Paremlar uchun tanlangan rang-barang mavzular barcha xalqlar uchun umumiy bo'lsa-da, ular ichki mazmuni, muayyan holat yoki tushunchaga turli xalqlarning ijtimoiy holati va dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda bergan bahosi nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. "Vatan" shunday mavzulardan biridir. Ushbu tadqiqotdan bizning maqsadimiz barcha xalqlarga xos bo'lgan, qadriyat darajasiga ko'tarilgan "vatan" tushunchasining ichki va madaniy xususiyatlarni paremlar vositasida yanada teranroq ochib berishdir.

Bugunga qadar paremalarni yig'ish va o'rganish borasida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbek tilshunosligida Hodi Zarif, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, Mansur Afzalov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Asqar Musaqulov kabi olimlar paremalarni to'plash, nashrga tayyorlash va tadqiq qilish ishlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Bu olimlarning ishlarida paremalarning turli tomonlama mukammal tadqiqi amalga oshirilgan bo'lsa-da, paremalarni tashkil etgan leksik komponentlar ichki mazmun-mohiyati bilan batafsil yoritib berilmagan. Biz ushbu tadqiqotimizda vatan va vatanparvarlik ruhidagi paremalarda qo'llangan vatan semasiga

ega leksik birliklarning semantik, lingvomadaniy jihatlarini yoritib berishga harakat qildik. Mazkur paremalarni tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

“Vatan” tushunchasi barcha tillarda mavjud bo‘lgani holda, u turli so‘zlar bilan ifodalanadi. Masalan, nemis tilida “Heimat”, “Heimlich”, “Vaterland” so‘zlari shu mazmunga ega leksik birliklar sifatida qo‘llanadi. “Heimat” so‘zini etimologik tahlil qiladigan bo‘lsak, bu so‘zning paydo bo‘lishi nemis adabiyotlarida 1050–1350-yillarga borib taqalishi va «joy», «makon», «inson tug‘ilgan joy», «o‘zini o‘z uyidek his qiladigan hudud» ma‘nosini anglatishi aytiladi. “Heimlich” sifati ham XVIII asrdan boshlab olmon tilida «Vatanga taalluqli», «tug‘ilib o‘sgan joyga taalluqli» ma‘nosida qo‘llana boshlangan. Nemis tilida vatan ma‘nosini ifodalovchi “Vaterland” so‘zi esa nisbatan keyin paydo bo‘lgani manbalarda qayd etilgan.

Ingliz tili lug‘atlarida “homeland”, “motherland”, “fatherland”, “mother country” kabi so‘zlar “vatan” semasiga ega leksemalar sifatida ko‘rsatiladi. Qayd qilib o‘tish kerakki, o‘zbek tili bilan taqqoslaganda ingliz paremalarida vatan mavzusiga murojaat qilingan o‘rinlar miqdor jihatdan sezilarli darajada kam. Lug‘atlarda bu tushunchani ifodalovchi leksema quyidacha ta‘riflangan: “Oxford English Dictionary” elektron lug‘atida “motherland”, ya‘ni ona yurt “biror bir insonning tug‘ilgan yurtidir” deb ta‘riflanadi. “Collins” lug‘atida esa yanada kengroq ta‘rif keltirilgan: “Ona vatan bu avlodlar tug‘ilgan zamin bo‘lib, garchi undan uzoqda bo‘lsa-da, qalban bog‘langan maskan”. “Macmillan Dictionary” lug‘atida esa bu ta‘riflarga qo‘shimcha ravishda “...unga nisbatan sodiqlik va sevgi his qilinuvchi yurt” ta‘rifi ham kiritilgan.

O‘zbek tilida ham vatan bir qator: *yurt, ona zamin, ona yer, ota mamlakat, ona tuproq, jonajon o‘lka, tug‘ilgan diyor* kabi nomlar bilan ataladi.

Vatan tushunchasiga ulug‘ mutaffakkirlar turli sifatlar berishgan. Jumladan, Abdulla Avloniy: “Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati shul kishining vatani deyilur” deb vatanga ta‘rif beradi. Taniqli yozuvchimiz Tohir Malikning quyidagi fikrlarida esa bundan birmuncha farqli qarashlar bildirilgan: “Agar tug‘ilgan yer to‘la ma‘noda Vatan bo‘lganida edi, biz tomonlarda tug‘ilib o‘sgan nemislar, yunonlar, yahudiylar, Qrim tatarlari va yana boshqa millatning vakillari ota-bobolari yurtiga ko‘chib ketmas edi”. Bu qarama-qarshi qarashlardan yakdil xulosaga kelish uchun lingvistik lug‘atlarga murojaat qildik. Paremalar tarkibida vatan tushunchasi vatan so‘zidan tashqari yana bir qator so‘zlar bilan voqelanganligi sababli bu mavzudagi paremalar mazmun-mohiyatini yanada teranroq ochish maqsadida Vatan semasiga egalik umumiy belgisi asosida bir paradigmatic qatorni tashkil etuvchi bir guruh leksemalarning semantik tahlilini amalga oshirdik.

Azim Hojiyevning “O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati” kitobida vatan tushunchasini ifodalovchi so‘zlar sifatida quyidagi sinonimik qator keltirilib, ularning har birining izohiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan (Ma‘lumot o‘rnida ushbu kitobga faqat leksik

sinonimlargina kiritilgan bo'lib, sinonimik qatordagi har bir so'zga qarata aytilgan fikr-mulohaza shu so'zni qo'llashda amal qilinadigan qat'iy hukm deb emas, balki tavsiyalar deb qaralishi lozimligi muallif tomonidan ta'kidlab o'tilgan.):

VATAN, MAMLAKAT, YURT, DIYOR, EL, MULK. Kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning grajdani bo'lgan joy, territoriya. Vatan so'zida grajdan, xalq tushunchasi u mansub bo'lgan joy tushunchasi bilan birlashgan, shuningdek, unda joy (territoriya)ning grajdan, xalqqa mansubligi, uning yashash joyi ottenkasi aks etib turadi. Mamlakat ko'proq adabiy nutqqa xos bo'lib, unda «yashash joy» ottenkasi juda kuchsiz, hatto yo'q darajada bo'ladi. Bu so'z umuman biror xalq yoki xalqlar uchun umumiy (birlashtiruvchi) territoriyani bildiradi. Yurt ko'proq oddiy nutqqa xos va u ma'lum joy (territoriya) bilan shu joyga mansub xalqni ham qo'shib ifodalay oladi. El nisbatan eskirgan, hozir ko'proq poetik asarlarda uchraydi. Diyor poetik uslubga xos. Bu so'z umuman ma'lum bir joy ma'nosida (ma'lum bir xalqqa mansublik tushunchasisiz) ham qo'llanadi.

Ushbu ta'rifda so'zlarning asosan uslubiy farqlanishi keltirib o'tilganligi bois ularning mazmun doirasini yanada ayonlashtirish maqsadida boshqa lug'at paremalarga ham murojaat qildik. Ularning har biriga alohida-alohida to'xtaldik.

“Vatan” so'zi arabcha وطن - tug'ilib o'sgan joy, yurt ma'nosini anglatadi. Bu so'zning kelib chiqishi – etimologiyasi haqida Sh. Rahmatullayev shunday deydi: “Bu arabcha so'z vatan(un) shakliga ega. Bu so'z “yashadi”, “hayot kechirdi” ma'nosini anglatuvchi “vatana” fe'lining I bob masdari bo'lib, kishining tug'ilib-o'sib yashayotgan joyi (mamlakat, o'lka, shahar, qishloq) ma'nosini anglatadi”.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da esa bu so'zga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; yurt, diyor.
2. Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt.
3. Turar-joy, boshpana, maskan, uy.
4. O'simlik va shu kabilarning asli kelib chiqqan yerini bildiradi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ham shunga yaqin izoh keltirilgan: Vatan — 1) kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmuyi. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi;

- 2) biror narsaning, masalan, o'simlikning yuzaga kelgan joyi.

Parema:

Vatanning tinch – sen tinch;

Kim onasin emmagan, kim vatanin sevmagan?!

Bulbul chamanni sevar, odam – vatanni;

Onaga bo'lgan muhabbat – vatanga bo'lgan muhabbatning kurtagi;

“Yurt” so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha ifodalangan:

1. Ma'lum xalq, aholi yashab turgan joy; o'lka, mamlakat, vatan.

2. Biror mamlakat yoki o'lkada yashovchi xalq; el; aholi.

Etimologiyasi: bu ot qadimgi turkiy tilda "bir joydan ikkinchi bir joyga harakatlan" ma'nosini anglatuvchi "yori" fe'lining "yuri" shaklidan (Devon, III, 96) -t qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, qo'shimcha qo'shilganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan:

yuri- + t > yurit > yurt.

Bu so'z asli "ko'chmanchi qabilaga qarashli yerlar" ma'nosini anglatgan bo'lib, "aholi yashaydigan joy" ma'nosi o'troq hayot kechirish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan (O'zbek tilining etimologik lug'ati (I-jild) ma'lumotlaridan foydalanilgan).

Parema:

O'z yurtiing – o'lan to'shaging, o'zga yurt bo'lmas beshiging;

Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtiingda gado bo'l;

Bir yaxshining qadriin bilmas, bir yomonga tushmaguncha,

Shohlar yurtning qadriin bilmas, yurtdan-yurtga oshmaguncha;

Yurt puflasa, shamol turadi.

El

Ma'nosi: 1. Bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umuman, ko'pchilik odam, xaloyiq, hamma.

2. Bir yurtga, qabilaga mansub odamlar; millat, xalq.

3. Yurt, diyor, mamlakat.

Etimologiyasi: "ma'lum yurtda birgalikda yashovchi aholi", "yurt". Yer to'ymaguncha el to'ymas (Parema). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli "i:l" tarzida talaffuz qilingan, o'sha davrlardayoq i: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan va bu unli e unlisiga almashgan (Devon, I, 83):

i:l > il > el.

Parema:

Har kimning o'z elati o'ziga shirin;

O'zbek iskab bo'lsa ham, elini topar;

Otang – el, onang – el;

Eldan ayrilgan – ozar, elga qo'shilgan – o'zar;

Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

Xulosa qilib aytganda, paremalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish ularning leksik-semantik ahamiyatini ochib berishni taqozo etadi. Muayyan millatning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilish jarayonida vatan va ona diyor guruhiga oid so'zlarning semantikasi, etimologiyasini bilish o'sha xalqning boy tarixiy o'tmishiga asoslangan turli tushunchalarini o'z ichiga qamrab oluvchi, ularning madaniyati, mentaliteti, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishishga xizmat qiluvchi paremalarning asl mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs – Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, 2000.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq paremalari. – Т.: Sharq, 2005.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “V” harfi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ilmiy nashriyoti. Toshkent.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “Yu” harfi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ilmiy nashriyoti. Toshkent.
5. T.Mirzayev. O‘zbek xalq paremalari. – Т.: Sharq, 2012.
6. Алибекова К. Е. Обучение триязычных студентов медицинской лексике и пословицам русского языка с базовыми концептами “здоровье”, “гигиена”. –Ташкент, 2006.
7. Арутюнова Н. Д. Воля и свобода / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Космос и хаос. Концептуальные поля порядка и беспорядка. - М.:Индрик, 2003. С. 73-100.
8. Аскольдов С. Концепты слова Русская Словесность. –М., 1997, - С. 269
9. Игнатова. Е. М. Концерт Родина в социально-культурном контексте Германии. Вопросы филологии-2006-№ С-8
10. Кухарева Е. В. Типологически-универсальное и национально-специфическое в арабских пословицах и поговорках. Ч.2.- М.: РУДН,2003.
11. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремнология. – Москва, 1988
12. Пименова М. В. Концепт сердце : Образ. Понятие. Символ: монография / М. В 7. Das Psychologie - Lexikon. - Deutschland, 2008

Til ijtimoiy funksiyalarining nazariy talqini

Mardanov Rahim,

Jizzax politexnika instituti, assistent

Annotatsiya. Ushbu maqolada til ijtimoiy funksiyalarga ega ekanligi, til muammosining respublikamizda muvaffaqiyatli hal qilingani, ko‘p millatli mamlakatimizda o‘zbek tilining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy hayot sohalarida kengayishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: til, xalq, ijtimoiy, muloqot, funksiya.

O‘zbek tilining funksiyalari o‘zbeklar ijtimoiy hayotidagi shart-sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Til ijtimoiy funksiyalariga davlat mustaqillikni qo‘lga kiritgani katta ta‘sir o‘tkazdi. Til muammosini muvaffaqiyatli hal

O'zbek xalq maqollarida antroponimlar Xolova Munisa	427
Paremalarda "vatan" tushunchasini ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili Sharipova Ozoda	430
Til ijtimoiy funksiyalarining nazariy talqini Mardanov Rahim	435
O'zbek tili ish yuritish terminlarida antonimiya va omonimiya hodisalari Saidov O'lmas	440
Pedagogik faoliyatda nutq madaniyati va imijning uyg'unligi Yusufova Dilrabo	444
Peshona somatizmi ishtirok etgan maqollarning leksik-semantik xususiyatlari Sobirova Muxlisa	447
Antropotsentrizmning o'ziga xos xususiyatlari Kilichev Akram	450
O'zbek xalq maqollarida "muhabbat" konseptini atab keluvchi nomlarning lingvistik tahlili Sa'dullayeva Madina	455
"Hasharot" LMG asosida shakllangan paremalarning ayrim xususiyatlari Samandarova Gulnoz	460
Xurshid Davron she'riyatining til xususiyatlari Qurbonova Muharram	465
Abdulla Qodiriy – so'z zargari Xudoyqulova Shoxistaxon	469
Chingiz Aytmatov ijodini interaktiv metodlar asosida o'rganish Tursunova Shaxzoda	474
O'zbek tilining kommunikativ va informatsion ahamiyati Abduvaxobova Dildora	479
Ona tili (o'zbek tilshunosligi)ni o'qitish hamda til ta'limi jarayonida ta'limiy didaktik o'yinlar va pedagogik metodlarni tatbiq etish O'razov Alisher	483
Sport-sog'lomlashtirish bilan bog'liq ayrim nomlar haqida mulohazalar Sidiqov Jahongir	487
Jahon folklorshunosligida ertaklarning yaratilishi Rahmonova Zamira	490
O'zbek tilshunosligidagi muammolar Baysariyev Nosir	493
Termin va uning o'ziga xos lisoniy xususiyatlari Ashurov Bekzod	496
Abdulla Qodiriyning "Uloqda" va "Jinlar bazmi" hikoyalarida qo'llangan tub turkiy so'zlar Cho'liyev Ruhillo	501